

**TABIY FANLARNI O‘QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN
FOYDALANISH YUZASIDAN METODIK TAVSIYALAR**

Mohiraxon Ahmadbekova
Biologiya fani o‘qituvchisi

Bugungi kunda ta‘lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo‘li mashg‘ulotlarni interfaol metodlar yordamida tashkil etishdir. Xo‘sh, interfaol metodning o‘zi nima? U qanday didaktik xususiyatga ega? Ta‘lim jarayonida interfaol metodlarning o‘rinli, maqsadga muvofiq qo‘llanilishi qanday natijani beradi?

“Interfaol” tushunchasi ingliz tilida “inter” – o‘zaro, ikki taraflama, “akt” – harakat qilmoq, ish ko‘rmoq ma‘nolarini anglatadi.

Interfaol ta‘lim – o‘quv jarayonida ishtirokchilarning bilim, ko‘nikma va hamda muayyan axloqiy sifatlarni o‘zlashtirish yo‘lida birgalikda, o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslanuvchi ta‘limdir.

Interfaollik, avvalo, ta‘lim beruvchi va ta‘lim oluvchining suhbat(dialog), o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyatni olib borishlarini ifodalaydi. Ma‘lumki, ta‘lim sohasida an‘anaviy ta‘lim asosan ma‘ruza va o‘zaro savol-javobga asoslangan edi.

Bugungi kunda ta‘limda interfaol usulning imkoniyatlari oldingi, an‘anaviy ta‘lim imkoniyatlaridan kengroq ekanligi ravshanlashmoqda. Interfaol o‘qitish ta‘lim jarayonining asosiy ishtirokchilari – o‘qituvchi, o‘quvchi va o‘quvchilar guruhi o‘rtasida yuzaga keladigan hamkorlik, qizg‘in bahs-munozaralar, guruhlariga bo‘lingan holda o‘zaro fikr almashish asosida tashkil etiladi. Ularda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda echimlarni birgalikda izlash imkoniyati paydo bo‘ladi. O‘quv materiallarini o‘zlashtirishda o‘quvchilarning o‘zaro yaqinligini yuzaga keltirish, “o‘qituvchi-o‘quvchi-o‘quvchilar guruhi”ning o‘zaro bir-birlarini hurmat qilishi, tushunishi kabilar bilan tavsiflanadi.

O‘Zimizning kundalik amaliyotimizda darslarga tayyorgarlik ko‘rishda ko‘p jihatdan qulay va samarali interfaol metodlarni tanlar ekanmiz, har bir metodning mazmuni, mohiyatiga alohida e‘tibor berish bilan birga, muayyan metodning “metodik salohiyati”ni, ya‘ni uning serqirra jihatlarini kashf etishga harakat qilamiz. Har bir interfaol metod metodik tavsiyalar va qo‘llanmalarga taqdim etilayotgan ko‘rinishdagina emas, balki darsning samaradorligini oshirish maqsadida qo‘llanilishiga harakat qilamiz.

Quyida o‘z amaliyotimizda ayrim interfaol metodni darsning turli bosqichlarida qo‘llash bilan birga, uning rang-barang qirralarini ochib berishga e‘tibor berdik.

Tabiiy fanlarni o‘qitishda interfaol metodlarni qo‘llash uchun keng imkoniyatlar mavjudligini o‘z tajribamizda ko‘p marta iqror bo‘ldik. Har bir mavzuni bayon etish va o‘rganishda interfaol metodlar ham ta‘limiy, ham tarbiyaviy, ha ijtimoiy ahamiyatga ega.

Interfaol metodlarning “etakchi”si hisoblangan guruhlarda ishlash metodini qo‘llashda turlicha yondashdik.



INTRODUCTION OF NEW INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN EDUCATION OF PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY.

International online conference.

Date: 27th May-2026

“Odam va uning salomatligi” mavzusini o‘rganishda guruhlarda ishlash metodi quyidagi sxema asosida tashkil etildi:



O‘qituvchi sinf o‘quvchilarini yakka tartibda ishlashga chorlaydi va har bir o‘quvchiga A-4 qog‘ozining yarim qismida tushirilgan jadvalni

Jismoniy salomatlikga ta’sir ko‘rsatadigan omillar		Ruhiy salomatlikga ta’sir ko‘rsatadigan omillar		Ijtimoiy salomatlikga ta’sir ko‘rsatadigan omillar	
ijo	salbiy	ijobiy	salbiy	ijobiy	salbiy
Xulosa					

Yakka ishlash uchun topshiriq. Jadval bilan tanishib chiqing va undagi savollarga javob yozing. Xulosa katagi to‘ldirilmaydi.

Keyin o‘qituvchi sinf o‘quvchilarini 4 kishilik guruhlariga bo‘ladi.

Guruhlar uchun topshiriq. Guruhda bir-biringizga jadvaldagi savollarga yozgan javoblaringizni o‘qib bering, to‘ldiring. Yangi fikrlar tug‘ilsa, jadvallarning bo‘sh joylariga yozib qo‘ying Keyin muxokama qilib, yozilgan fikrlardan kelib chiqqan holda jadvallaringizni Xulosa katagini to‘ldiring.

Aynan shu guruhlarda ishlash metodi “Qonning tarkibi va shaklli elementlari” mavzusini o‘rganishda boshqacha tartibda qo‘llanildi.

O‘qituvchi sinf o‘quvchilarini 5-6 kishilik kichik guruhlariga bo‘ladi va har bir guruh uchun topshiriqlar yozilgan kartochkalar, 1tadan flipchart va rangli markerlarni tarqatadi.

1-guruh	
O‘quv darsligidan foydalanib, qon plazmasi haqidagi ma’lumotlarni toping: qon plazmasining tarkibi, undagi moddalarning miqdori, fiziologik va biologik vazifalari	Sizningcha, qon plazmasini tayyorlash uchun qon qanday talablarga javob berishi kerak? Qanday toifadagi odamlarning qonidan qon plazmasi tayyorlab bo‘lmaydi? Nima uchun?
2-guruh	
O‘quv darsligidan foydalanib, eritrotsitlar(qizil qon tanachalari) haqidagi ma’lumotlarni toping: hosil bo‘lish joyi,	Eritrotsitlarning tarkibidagi gemoglobin miqdorining kamayishi qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin? Buning oldini olish uchun



INTRODUCTION OF NEW INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN EDUCATION OF PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY.

International online conference.

Date: 27th May-2026

ularning shakli va miqdori, etarli miqdorda hosil bo'lishi uchun zarur omillar va organizmdagi vazifalari	odamlar nima qilishlari kerak?
3-guruh	
O'quv darsligidan foydalanib, leykotsitlar(oq qon tanachalari) haqidagi ma'lumotlarni toping: uning tarkibi, qachon halok bo'lishi, organizmdagi vazifalari, sog'lom va bemor odamlardagi miqdoriy farqi, organizmda ularning ortib ketishi yoki kamayib ketishi	Surunkali uzoq davom etuvchi kasalliklarda leykotsitlar soni kamayadi, bu esa organizm nihoyatda kuchsizlanganidan dalolat beradi. Sizningcha, bu kabi holatning oldini olish uchun odamlar nima qilishlari kerak?
4-guruh	
O'quv darsligidan foydalanib, trombositlar haqidagi ma'lumotlarni toping: ularning hosil bo'lish joylari, miqdori, etarli miqdorda bo'lmagan holda yuzaga keladigan xavfli holatlar, yashash muddati, vazifasi	Trombositlar soni kamayganda qonning ivish xossasi buziladi. Qonning ivish xossasi buzilishi qanday oqibatlarga olib keladi? Sizningcha, odamlar buning olini olish uchun nima qilishlari kerak?
5-guruh	
O'quv darsligidan foydalanib, gemofiliya kasalligi haqidagi ma'lumotlarni toping: uning kelib chiqish sabablari, belgilari, organizmning qaysi minerallar va vitaminlarga muhtojligi oqibatida rivojlanishi	Sizningcha, gemofiliya kasalligi qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin? Bu kasallikning zo'riqib ketmasligi uchun odamlar nima qilishlari kerak?

Guruhlar uchun topshiriq. Flipchartni marker bilan chizib, teng 2 qismga bo'ling. Flipchartning bir qismiga 1-topshiriq yuzasidan ma'lumotlarni yozing. Flipchartning 2-qismiga 2-topshiriq yuzasidan guruhda qilgan xulosalaringizni yozing.

Guruhlar taqdimoti. Har bir guruh o'z ishini o'qib eshittiradi. Agar ehtiyoj tug'lsa, o'qituvchi javoblarga to'ldirishlar kiritadi.

YUqoridagi dars lavhalarida guruhlar soni mavzu doirasida taqdim etilayotgan bilim, ko'nikma va malakalarning o'ziga xos xususiyatiga bog'liq. Quyida esa aynan shunday vaziyatdan yorqin namuna taqdim etiladi.

O'qituvchi "Ovqat hazm qilish organlarining tuzilishi va vazifasi" mavzusini o'rganishda sinf o'quvchilarini 8 ta guruhga bo'ladi, har bir guruhga ½ flipchart, rangli markerlar va topshiriq yozilgan kartochkani tarqatadi.

1-guruh	
Og'iz bo'shlig'ida qanday organlar joylashgan? Tilning ovqat hazm qilishdagi ishtiroki nimadan iborat?	Sizningcha, ovqat hazm qilish paytida og'iz bo'shlig'idagi organlarning shikastlanishiga nimalar sabab mumkin? Bu organlarning shikastlanishini oldini olish uchun qanday ehtiyot choralarini ko'rish

INTRODUCTION OF NEW INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN EDUCATION OF PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY.

International online conference.

Date: 27th May-2026

	kerak, deb o'ylaysiz?
2-guruh	
Ovqat hazm qilishda tishlarning vazifasi nimadan iborat? Tishlar qanday turlarga bo'lingan? Ular qanday qismlardan tashqil topgan?	Sizningcha, tishlarning sog'lom bo'lishi ovqat hazm qilishda qanday ahamiyatga ega? Ovqat hazm qilish paytida tishlarning shikastlanishiga nimalar sabab bo'lishi mumkin? Ularni sog'lom tutish uchun qanday ehtiyot choralarini ko'rish kerak, deb o'ylaysiz?
3-guruh	
Og'iz bo'shlig'ida qanday so'lak bezlari joylashgan? Ularning ovqat hazm qilishdagi ishtiroki nimadan iborat?	Sizningcha, ovqat hazm qilish paytida og'iz bo'shlig'ida joylashgan so'lak bezlarining shikastlanishiga nimalar sabab bo'lishi mumkin? So'lak bezlarining shikastlanishini oldini olish uchun qanday ehtiyot choralarini ko'rish kerak, deb o'ylaysiz?
4-guruh	
Ovqat hazm qilishda halqum qanday vazifalarni bajaradi? U qanday qismlardan iborat? Uning ovqat hazm qilishdagi ishtiroki nimadan iborat?	Sizningcha, ovqat hazm qilish paytida halqumning shikastlanishiga nimalar sabab mumkin? Halqumning shikastlanishini oldini olish uchun qanday ehtiyot choralarini ko'rish kerak, deb o'ylaysiz?
5-guruh	
Ovqat hazm bo'lishda qizilo'ngachning vazifasi nimadan iborat? U qanday qismlardan iborat? Uning ovqat hazm qilishdagi ishtiroki nimadan iborat?	Sizningcha, ovqat hazm qilish paytida qizilo'ngachda qanday fizik va kimyoviy xodisalar yuz beradi? Me'daning shikastlanishiga nimalar sabab bo'lishi mumkin? Uning shikastlanishini oldini olish uchun qanday ehtiyot choralarini ko'rish kerak, deb o'ylaysiz?
6-guruh	
Ovqat hazm bo'lishida o'n ikki barmoqli ichakning vazifasi nimadan iborat? O'n ikki barmoqli ichak qanday qismlardan iborat? Uning ovqat hazm qilishdagi ishtiroki nimadan iborat?	Sizningcha, ovqat hazm qilish paytida o'n ikki barmoqli ichakning shikastlanishiga nimalar sabab bo'lishi mumkin? Uning shikastlanishini oldini olish uchun qanday ehtiyot choralarini ko'rish kerak, deb o'ylaysiz?
7-guruh	
Ovqat hazm bo'lishida ingichka ichakning vazifasi nimadan iborat? Ingichka ichak qanday qismlardan iborat? Uning ovqat hazm qilishdagi ishtiroki nimadan iborat?	Sizningcha, ovqat hazm qilish paytida ingichka ichakning shikastlanishiga nimalar sabab bo'lishi mumkin? Uning shikastlanishini oldini olish uchun qanday ehtiyot choralarini ko'rish kerak, deb o'ylaysiz?



INTRODUCTION OF NEW INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN EDUCATION OF PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY.

International online conference.

Date: 27th May-2026

8-guruh

Ovqat hazm bo'lishida yo'g'on ichakning vazifasi nimadan iborat? Yo'g'on ichak qanday qismlardan iborat? Uning ovqat hazm qilishdagi ishtiroki nimadan iborat?	Sizningcha, ovqat hazm qilish paytida yo'g'on ichakning shikastlanishiga nimalar sabab bo'lishi mumkin? Uning shikastlanishini oldini olish uchun qanday ehtiyot choralarini ko'rish kerak, deb o'ylaysiz?
--	--

Guruhlar uchun topshiriq. Guruhda flipchartni marker bilan chizib, teng 2 qismga bo'ling. Flipchartning bir qismiga kartochkadagi 1-topshiriqda berilgan savollarga javob yozing. Savollarga javob topishda darslikdan foydalaning. Flipchartning 2-qismiga 2-topshiriqda berilgan savollar yuzasidan guruhda qilgan xulosalaringizni yozing.

Guruhlar taqdimoti. Guruhlar tayyorlagan ma'lumotlarini sinf doskasi va devorlarida skotch bilan ilib qo'yadilar. O'quvchilar xonada erkin yurib, barcha ma'lumotlar bilan tanishib chiqadilar. Qaysidir ma'lumot bo'yicha savollar bo'lsa, muallif guruh savollarga javob beradi. Agar ehtiyoj tug'lsa, o'qituvchi javoblarga to'ldirishlar kiritadi.

Hulosa qilib shuni aytish kerakki, interfaol metodlarning salohiyatini, imkoniyatlarini va rang-barang qirralarini kashf etish o'qituvchining kompetensiyasiga, o'z mehnatiga ijodiy yondashuvga uzviy bog'liq.